

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ABDULLA QAHHOR VA SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRIDA BADIY USLUB VA ESTETIK QARASHLAR

Annotatsiya: O'zbek adabiyotining ikki ulkan namoyandasi — Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev nasriy asarlarida kuzatiladigan voqelikni san'atkorona ifodalash usullari, obraz yaratish mahorati, til va uslubdagi xalqona ohang, badiiy tafakkurning chuqurligi kitobxon diqqatini tortmay qolmaydi. Ushbu maqolada har ikki yozuvchining nasriy asarlarida ishlatilgan stilistik xususiyatlar, obraz yaratish usullari va estetik yondashuvlar solishtiriladi. Shuningdek, maqolada Abdulla Qahhor ijodiga xos ijtimoiy realizm va psixologizm hamda Shukur Xolmirzayev nasrida kuzatiladigan lirizm va xalqona uslubning o'zaro ta'siri xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: nasr poetikasi, badiiy uslub, estetik qarashlar, stilistika, o'zbek adabiyoti, realizm, lirizm, obraz yaratish, psixologizm, obrazlar tizimi, milliy tafakkur, xalqona ruh, realistik tasvir, badiiy tafakkur.

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, профессор кафедры узбекской литературы, кандидат филологических наук

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СТИЛЬ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ПРОЗЕ АБДУЛЛЫ КАХХОРА И ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация: Приёмы художественного воплощения действительности, мастерство создания образов, народный колорит языка и стиля, глубина художественного мышления, наблюдаемые в прозаических произведениях двух выдающихся деятелей узбекской литературы – Абдуллы Каххора и Шукура Холмирзаева, не могут не привлечь внимание читателя. В статье сравниваются стилистические особенности, приёмы создания образов и эстетические подходы, используемые в прозаических произведениях обоих писателей. Также подробно рассматривается взаимодействие социального реализма и психологизма, присущих творчеству Абдуллы Каххора, и лиризма и народного стиля, наблюдаемых в прозе Шукура Холмирзаева.

Ключевые слова: поэтика прозы, художественный стиль, эстетические взгляды, стилстика, узбекская литература, реализм, лиризм, образотворчество, психологизм, система образов, национальная мысль, народный дух, реалистический образ, художественная мысль.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor of the Department of Uzbek Literature,
Candidate of Philological Sciences*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ARTISTIC STYLE AND AESTHETIC VIEWS IN THE PROSE OF ABDULLA QAHHOR AND SHUKUR KHOLMIRZAYEV

Abstract: *The methods of artistic expression of reality, the skill of image creation, the folk tone in language and style, and the depth of artistic thinking observed in the prose works of two great figures of Uzbek literature - Abdulla Qahhor and Shukur Kholmirzayev cannot fail to attract the reader's attention. This article compares the stylistic features, methods of image creation, and aesthetic approaches used in the prose works of both writers. The article also discusses in detail the interaction of social realism and psychologism inherent in the work of Abdulla Qahhor and the lyricism and folk style observed in the prose of Shukur Kholmirzayev.*

Keywords: *prose poetics, artistic style, aesthetic views, stylistics, Uzbek literature, realism, lyricism, image creation, psychologism, system of images, national thought, folk spirit, realistic image, artistic thought.*

Kirish

O'zbek adabiyoti XX asrda o'zining boy va rang-barang namoyandalariga ega bo'lib, bu davrda adabiyotimizda yangi badiiy uslublar va estetik qarashlar shakllana boshladi. Ayniqsa, Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev kabi yozuvchilar o'zlarining ijodlari orqali milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga intildilar. Ularning nasriy asarlari nafaqat o'zbek xalqining hayoti va ruhiyatini teran aks ettiradi, balki badiiy ifoda vositalarining yangi shakllarini yaratishdagi o'ziga xos yondashuvlari bilan ham ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili

Abdulla Qahhor — o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri. Uning asarlarning ko'pchiligi adabiyotimiz mulkiga aylanib qoldi. O'z vaqtida uning asarlari Yevrova va Osiyo xalqlarining tillariga ko'plab tarjima etilar, qo'shni o'lkalarda keng tarqalar edi. Shu tarzda, Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosda shuhrat qozonishida ham katta xizmat qildi. Uning el-yurt oldidagi xizmatlari haqida gapirganda, ayniqsa, o'zbek adabiy tilining rivojiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlash kerak.

Shukur Xolmirzayev ham o'z navbatida ustoz Abdulla Qahhor kabi nasriy asarlarida xarakter tabiati, inson ruhiyatining nozik qirralarini ochishga e'tibor qaratgan. Adibning nasriy asarlaridagi individual uslubini, badiiy tasviriy vositalarini, qahramonlarning ichki olamini va badiiy niyatlari o'ziga xos tarzda yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Asosiy diqqat markazida Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev nasrida badiiy uslub va estetik qarashlarni tarixiy-tipologik endashuv, qiyosiy-tahliliy

usul, matnshunoslik (tekstologik) tahlil va kontekstual tahlillar orqali o'rganildi va har ikki yozuvchining o'ziga xos adabiy olami, milliy ruhni ifodalashdagi mahorati hamda badiiy tafakkur uslubi ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar va natijalar

Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev ijodiga xos bo'lgan badiiy uslubiy xususiyatlar va estetik qarashlar chuqur tahlil qilinib, quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

1.Badiiy uslubda realistik yondashuv ustuvorligi. Abdulla Qahhor o'z ijodida realistik uslubni mukammal darajada qo'llagan. U hayotni, jamiyatdagi muammolarni, inson ruhiy kechinmalarini sodda, ammo chuqur badiiy tasvirlar orqali aks ettira olgan. Masalan, "O'g'ri" hikoyasida o'ziga xos yumor va keskin ijtimoiy tanqid uyg'unlashadi.

Shukur Xolmirzayev ham hayotni realistik ruhda aks ettiradi, ammo uning uslubida lirizm, ruhiy-intim kayfiyatlar va inson qalbining ichki kechinmalarini badiiy ochib berishga intilish kuchliroq. U adabiyot orqali milliy ruh, madaniy meros va an'analarni saqlash, xotirani qadrlash g'oyalarini ilgari suradi.

2.Til va ifoda vositalari. Har ikki yozuvchi ham o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Abdulla Qahhor tilni sodda, xalqona, rang-barang iboralarga boy tarzda qo'llagan bo'lsa, Shukur Xolmirzayev tilda lirizm va poetik ifodaning kuchiga tayanadi. Dialoglardan foydalanish, xalq maqollari, kinoya, istehzo kabi vositalarning o'zni ikki ijodkor uslubining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

3.Estetik qarashlarda jamiyat va insoniylik masalasi. Abdulla Qahhorning asarlarida estetik mezon sifatida adolat, insoniylik, jamiyatdagi axloqiy illatlarga qarshi kurashish g'oyalari ilgari suriladi. Uning qahramonlari ko'pincha jamiyatdagi ziddiyatlarni ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Shukur Xolmirzayev esa ko'proq ruhiy-estetik yo'nalishga e'tibor qaratadi. Uning qahramonlari o'z kechinmalari, vijdon azoblari, orzu-umidlari orqali estetik haqiqatni anglatadi. Xotira, o'tmish va milliy qadriyatlar asarlarida muhim estetik g'oya sifatida talqin etiladi.

4.Nasriy janrlar bilan ishlash mahorati. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janrida qisqa, lo'nda, ammo chuqur g'oyaviy yuklamali asarlar yaratgan bo'lsa, Shukur Xolmirzayev nafaqat hikoya, balki nasriy shakllarda — esse, qissa va romanlarda o'z badiiy-estetik niyatlarini amalga oshirgan.

5.Badiiy obrazlar va xarakter yaratish. Ikkala yozuvchi ham obraz yaratishda ijtimoiy psixologizmga tayanadi. Abdulla Qahhor obrazlar orqali ijtimoiy muammolarni ochib beradi, Shukur Xolmirzayev esa obrazlar orqali inson qalbining ichki dramatizmini tasvirlaydi.

Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasi boshlanishida berilgan quyidagi parcha aynan asar boshida berilgan “Otning o'limi – itning bayrami” epigrafiga hamohang va mos: Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan...Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kizni topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi [7, 312].

Shukur Xolmirzayevning qahhorona uslubda yozilgan “Podachi” (1975) nomli hikoyasi bor. Kimdir bu fikrga qo'shilar, balki qo'shilmas, biroq shu hikoya yaratilishiga Abdulla Qahhorning “O'g'ri”si kuchli tahsir etgan deyish mumkin.

“Podachi” dagi Ostonaqul chol jamoa xo'jaligidagi ho'kizning harom o'lishiga sababchi bo'ladi. E'tiborsizlik yoki o'z ishiga sovuqqonlik tufayli emas, aksincha. Bu ho'kiz ko'p yillar davomida Ostonaqul cholning og'irini yengil qilgan, qanchadan-qancha qayg'u-quvonchlariga sherik bo'lgan. Qisqa qilib aytganda, ko'pdan-ko'p shirin va achchiq xotiralariga guvoh. Shu ho'kiz bexosdan qattiq kasallanadi-yu jon talvasasiga tushadi. Qani endi, Ostonaqul cholning so'yishga qo'li borsa. Chol bir necha bor bu ishga jahdlanadi ham, lekin yuragi betlamaydi.

Kolxoz kattalari cholning gunohini muhokama qilar ekanlar, unga bir-biridan bema'ni ayblarni taqaydilar; bo'lim boshlig'i: “Shartta so'yvorish kerak edi”, - desa, zootexnik: “Kechasi o'lgan, kechasi! O'zim jigarini yorib ko'rdim-ku, sovigan ekan. Boboy uxlab qolgan”,-deydi. Ular ho'kiz jon berayotgan mahalda

ham chol uning tepasida o'tirganini, ammo so'yishga qo'li bormaganini bilmaydilar, bilganlarida, balki uni aqldan ozganga chiqararmidilar. Podachi ham o'zini oqlab o'tirmaydi, ho'kizning pulini to'lashga rozi bo'lib, idoradan chiqib ketadi. Shu bilan hikoya tugaydi, ammo Ostanaqul cholning taqdiri bizni qiziqtiradi, uzoq o'ylatadi. Ruhiy kechinmalar oqimini tasvirlashda yozuvchining qattiqqo'lligi, yoyiq ruhiy tahlilga o'rin bermaslik, izohlarning yo'q darajada ekanligi asarga xolis munosabatni taqozo qiladi; hikoyaning butun qimmati o'sha yozuvchi tomonidan aytilmay qolgan, kitobxon esa mavjud vaziyatlardan payqab olishi lozim bo'lgan gaplarda. Tasvirda qisqalikka, soddalikka intilgan yozuvchining shu kabi hikoyalarida qahramon ham ortiqcha xatti-harakatlardan holi. O'quvchi podachi cholni o'ziga yaqin oladi, ularning dilidagi deyarli tuyg'ularni, hayvonga bo'lgan cheksiz mehrini qalban his qila oladi [5, 45].

Podachi Ostonaqul jamoa xo'jaligiga ho'kiz xunini to'lashga majbur bo'ladi. Mana bu lavhada endi biz kitobxonga kuchli ta'sir etuvchi asarning ikkinchi magnit maydonchasiga duch kelamiz.

“Bo'lim boshlig'i inqillab o'rnidan turdi:

— Ota, gap tamom, Ho'kizning pulini to'laysiz! — U atrofagi kishilarga ham bir-bir qarab oldi.-Qasddan o'ldirgan hisoblanadi... Kelishdikmi, ota?

Ostnanaqul chol sekin boshini ko'tardi:

— Xo'p, o'g'lim, to'laymiz.

—Kechiktirmang faqat! Kambag'al emassiz, belingiz baquvvat, qarindosh-urug'laringiz bor. Kampiringizniyam yig'ib qo'ygani bordir? Shunday bo'lsin... Majlis tamom”[6, 300].

Sekingina boshini ko'tarib, siniq bir ovozda ho'kiz xunini to'lashga rozilik bildirayotgan chol bizga avvaldan biroz tanish. Qahramon timsolida Qobil boboni ko'rgandek bo'lamiz. Sho'rlik kampirlar hayot shomida besh-o'n tangani nimaga deb yig'adi, barchaga ma'lum bu. Ana shu tugib o'limligiga yig'ganini tortib olayotgan basharalar —bizga tanish tuyuladi, albatta. Qobil boboning yo'qolgan ho'kizini topib beraman, deb uni battar adoyi-tamom qilganlar bilan majlis o'tkazib, Ostonaqul cholga hukm chiqarayotganlar ikki tomonning bir xil tiplari

emasmi? “O‘g‘ri” dagi ho‘kizni topib berish tadorogini ko‘ruvchilarning Qobil bobo qalbi bilan bir mirilik ishlari bo‘lmaganidek, “Podachi”dagi Ostonaqul cholning shu holatdagi qalbi-yu, ho‘kizning bevaqt o‘lib qolish sababini aniqlash bilan bu boshliqvachchalarning ham nech pullik ishi bor?

Rahbarlarning masala mohiyati bilan zarracha qiziqmay, oddiy bir mehnatkash podachining bir ho‘kiz o‘limi sabab qarz olib, hatto kampirining o‘limligiga yiqqanini ham tovon to‘lashga majburlashlari, uni xonavayron qilishlari haqiqatan “O‘g‘ri”dagi qozi, mingboshilarni eslatadi. Lekin hikoyadagi podachi obrazi butunlay boshqacha talqin qilingan. Adabiyotshunos H.Karimoq “Podachi”da “...jur’atsizlik, ikkilanish, masalani tezda hal qilmaslik, kimdandir madad kutish, avvalambor, kishining o‘ziga katta zarar keltirishi ochib berilgan” ligini aytib, podachi xarakteri mohiyatini, yozuvchi g‘oyaviy maqsadini tahlil qilib, yozadi: “Ostanaqul cholning xatti-harakati, hamma narsaga ko‘nikishi, muteligi Abdulla Qahhorning Qobil bobosini yodga soladi.Qobil boboni shu qadar ayanchli, abgor, jur’atsiz, mute qilgan mustamlakachilik bo‘lsa. Ostanaqul cholni shu ko‘yga solgan dunyoda eng insoniy tuzum deb jar solingan sotsialistik jamiyatdir. U shu qadar muteki, ho‘kiz yo‘qolmagan, o‘lgan. Uning isboti sifatida davlatga terisini topshirish mumkin. Qonun shuni taqozo qiladi. Lekin shunga qaramay, bo‘lim boshlig‘i “Ho‘kizning pulini to‘laysiz”, - deydi. U tuzumdagi rahbarlar ham xuddi “O‘g‘ri”dagi ellikboshi, pristavlarning o‘zi edi. Faqat nomi o‘zgargandi xolos. Hikoyada Sh.Xolmirzayev xuddi mana shu holatni XX asrning 70-yillaridayoq ustalik bilan ochib tashlagan. Bu hol so‘zsiz adibning jasoratidan dalolatdir” [3, 13]. E’tibor beraylik, agar Ostanaqul chol “ayanchli, abgor, jur’atsiz, mute” bo‘lsa, u davlatga tegishli ho‘kizning harom o‘lishiga qarab turaverarmidi? Bundan tashqari, podachi va Qobil bobo xarakterlari o‘xshash bo‘lsayu, faqat ular boshqa-boshqa tuzum odamlari bo‘lsa, Sh.Xolmirzayevning hikoya yozishdan maqsadi nima, yozuvchi bu bilan qanday gap aytmoqchi yoki asarning yangiligi nimada degan savollar o‘z-o‘zidan kelib chiqadi. Bunday tahlil oqibatida hikoya orqali sotsialistik jamiyatda Qobil bobo “modeli” sifatida podachi obrazini yaratgan Shukur Xolmirzayevning ijodiy “jasorat”i ham ko‘rinmay qoladi.

“Podachi” hikoyasining “O‘g‘ri” asariga yaqinligi sababi esa uning qahhorona uslubda yozilganligidir. Adabiyotshunos B.Nazarov Shukur Xolmirzayev hikoyasining yaratilishiga Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”si kuchli ta’sir etganini aytib, yozadi: “Yaqinlik ikkala hikoyada ham gap ho‘kiz to‘g‘risida borganida emas, albatta. Gap badiiy mantiq yaqinligi va mushtarakligida, xarakter yaratish borasida ustoz adib ijodiy prinsiplarining shogird tomonidan rivojlantirilishida” [2, 499]. Demak, har ikki hikoyaning mushtarak jihatlari detallar tanlashda, qahramon xatti-harakatlarining ular ichki dunyosiga mosligida, tasvirda maksimal soddalik va qisqalikka intilishda ko‘rinadi.

Xulosalar

Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev ijodining tahlili shuni ko‘rsatdiki, har ikki adib o‘zbek nasrining rivojida muhim o‘rin egallab, turlicha badiiy uslub va estetik qarashlar orqali hayot haqiqatini yoritishga erishgan: Abdulla Qahhor ijtimoiy tanqid va realizmga asoslangan sodda, xalqona uslubda jamiyatdagi muammolarni fosh etsa, Shukur Xolmirzayev ruhiy kechinmalar, milliy qadriyat va lirizmga asoslangan estetik ifoda orqali inson qalbi va milliy xotirani badiiy talqin etgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Hamidova M.O.Shukur Kholmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Rezearch 2020; 6 (5).- P. 448-450.
- 2.Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafidinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O‘qituvchi, 1999.- 544 b.
- 3.Karimov H. Shukur Xolmirzayev. Ijodiy portret.-Toshkent: Qatortol-Kmolot, 1999.- B.13.
- 4.Qahhor A. Tanlangan asarlar (3 jildlik). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
- 5.Tavaldiyeva G.Shukur Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari: Filol.fan.nomz....diss.-Toshkent, 2001.- B. 69.
- 6.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2003. - 448 b.
- 7.Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. – Toshkent: Sharq, 2017. – 368 b.